




Raxmatov Nozimjon G'aforovich

*O'zbekiston Respublikasi Ichki Ishlar Vazirining 2-sون Toshkent
akademik litseyi Huquqshunoslik fani o'qituvchisi*

Annotatsiya. *Aliment majburiyatining qonuniy tartiblari oilaviy huquq sohasida muhim o'rinn tutadi. Ushbu tartiblar ota-onalar, farzandlar va boshqa oila a'zolarining o'zaro moddiy ta'minot mas'uliyatini belgilab beradi. Alimentni tayinlash, uning miqdorini belgilash, to'lash va undirish tartib-qoidalari O'zbekiston Respublikasining Oila kodeksi hamda boshqa normativ-huquqiy hujjatlar bilan tartibga solinadi. Aliment majburiylari nafaqat bolalar, balki voyaga yetmagan yoki mehnatga layoqatsiz boshqa qarindoshlarga nisbatan ham qo'llaniladi. Ushbu huquqiy mexanizmlar oilaviy munosabatlarni tartibga solish va ijtimoiy adolatni ta'minlashga qaratilgan.*

Kalit so'zlar: *Aliment majburiyati, Oila kodeksi, moddiy ta'minot, huquqiy tartibot, farzandlar huquqi, qarindoshlik munosabatlari, aliment undirish tartibi.*

Ma'muriy sud ishlarini yuritish to'g'risidagi kodeksning 4-moddasiga ko'ra, har qanday manfaatdor shaxs o'zining buzilgan yoki nizolashilayotgan huquqi yoxud qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarini himoya qilish uchun sudga murojaat qilishga haqli. Bu huquq mamlakatimizdan chiqishi vaqtincha cheklangan aliment to'lovchi shaxslarga ham tegishlidir.

Aytish kerakki, ma'muriy sudlar tomonidan 2022 yilning birinchi yarmi davomida ommaviy-huquqiy munosabatlardan kelib chiqadigan 7 ming 704 ta ma'muriy ish ko'rib chiqilgan. Xususan, davlat ijrochisining aliment to'lovchi shaxsni mamlakatimizdan chiqishini vaqtincha cheklash haqidagi qarorini haqiqiy emas, deb topish to'g'risidagi ishlar ham shular sirasiga kiradi.

Voyaga yetmagan bolalar ta'minoti uchun alimentlar oldindan to'langan yoki aliment to'lash majburiyatini ta'minlash uchun garov shartnomasi tuzilgan bo'lsa, davlat ijrochisi to'lov yoki garov shartnomasi to'g'risidagi tegishli hujjat olingan kunning ertasidan kechiktirmasdan manfaatdor shaxslar, ichki ishlar organlari va Davlat chegarasini qo'riqlash organlarini qarzdor jismoniy shaxsning mamlakatimizdan chiqishga oid cheklovi olib tashlangani to'g'risida yozma ravishda xabardor qiladi. Bunda garov qiymati qonun hujjatlarida belgilangan eng kam ish haqining ikki yuz ellik baravaridan kam bo'lmasligi lozim.

Biroq amaliyotda ayrim davlat ijrochilari ushbu qonun talablarini noto'g'ri talqin qilgan holda ijro hujjati bo'yicha qarzi yo'q va aliment to'lashdan bo'yin tovlamagan aliment to'lovchi shaxslarga ham mamlakatimizdan chetga chiqishda sun'iy cheklov qo'yishdek salbiy holatlar uchrab turibdi.

Ular bundan norozi bo'lib, ma'muriy sudsiga murojaat qilganda ularning talablari rad etilayotganidan ham ko'z yumib bo'lmaydi. Chunki qayd etilgan ushbu qonun talabi umumiy qoida bo'lib, "Sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlarini ijro etish

MODERN EDUCATIONAL SYSTEM AND INNOVATIVE TEACHING SOLUTIONS

to‘g“risida”gi qonunning 7-moddasida nazarda tutilgan barcha ijro hujjatlari bo‘yicha amal qiladi. Qonunda sanab o‘tilgan ijro hujjatlaridan faqat aliment undirish haqidagi ijro hujjati bo‘yicha maxsus qoidalar boshqa qonun va me’yoriy hujjatlari bilan belgilangan.

Ya’ni, Oila kodeksining 145-moddasiga ko‘ra, aliment to‘lashi shart bo‘lgan shaxs doimiy yashash uchun yoki uch oydan ortiq muddatga chet davlatga ketayotganida qonunga muvofiq o‘zi ta’midot berishi lozim bo‘lgan undiruvchilar bilan ushbu kodeksning 130-134-moddalariga asosan aliment to‘lash to‘g“risida” kelishuv tuzishi shart.

Aliment to‘lash to‘g“risida” kelishuvga erishilmagan taqdirda manfaatdor shaxs aliment miqdorini pul bilan to‘lanadigan qat’iy summada belgilash va alimentni bir yo‘la to‘lash to‘g“risida” yoki aliment evaziga muayyan mol-mulkni berish yoxud alimentni boshqa usulda to‘lash to‘g“risidagi talab bilan sudga murojaat qilishga haqlidir.

Voyaga yetmagan bolalar ta’moti uchun alimentlar oldindan to‘langan yoki aliment to‘lash majburiyatini ta‘minlash uchun garov shartnomasi tuzilgan bo‘lsa, shaxs aliment to‘lash to‘g“risida” kelishuv tuzish majburiyatidan ozod etiladi. Alimentlarni oldindan to‘lash, shuningdek aliment to‘lash majburiyatini ta‘minlash bo‘yicha garov shartnomasini tuzish tartibi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.

Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 6 oktyabrdagi qarori bilan tasdiqlangan "Alimentlarni oldindan to‘lash, shuningdek, aliment to‘lash majburiyatini ta‘minlash bo‘yicha garov shartnomasini tuzish tartibi to‘g“risida”gi Nizomning 5-bandiga ko‘ra, alimentlar summasini oldindan to‘lash yoki alimentlar to‘lash majburiyatini ta‘minlash bo‘yicha garov taqdim etish faqat qarzdorning aliment to‘lovlardan qarzdorligi bo‘lmagan taqdiragina amalga oshiriladi.

Nizomning 8-bandida alimentlarni oldindan to‘lash yoki aliment to‘lash majburiyatini ta‘minlash uchun garov shartnomasining tuzilishi davlat ijrochisi yoki sud tomonidan qarzdor jismoniy shaxsning ilgari belgilangan mamlakatimizdan chiqishini vaqtincha cheklashni olib tashlash uchun asos hisoblanishi ko‘rsatilgan.

Ana shu talablardan ko‘rinishicha, aliment undirish haqidagi ijro hujjati bo‘yicha qarzdor jismoniy shaxsning mamlakatimizdan chiqish huquqini vaqtincha cheklash uchun uning aliment to‘lashdan bo‘yin tovashi emas, faqatgina aliment undirish haqidagi ijro hujjatining o‘zi kifoya qiladi. Aks holda, yuqorida qayd etilgan qonun va nizomda ko‘rsatilgan qoidalar hech qanday ahamiyat kasb etmaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Yarmatova, M. A. (2019). UTILIZATION OF OVERHEAD PROJECTOR IN RUSSIAN LANGUAGE CLASSES. *Modern Science*, (12-2), 265-267.
2. Surayyo, Y., & Sabohat, G. (2023). DEPRESSIVE-ANXIETY DISORDERS IN PATIENTS WITH RHEUMATOID ARTHRITIS AND METHODS OF THEIR PSYCHOCORRECTION. *Interpretation and researches*, 2(3), 9-16.



MODERN EDUCATIONAL SYSTEM AND INNOVATIVE TEACHING SOLUTIONS

3. Гафурова, С. И., & Юсупходжаева, С. Т. (2023). Differential analysis of neurotic disorders in irritable bowel syndrome and improvement of medical psychological support in them.
4. Sh, G. S. (2020). Ichak ta'sirlanish sindromidagi psixoemotsional buzilishlar va unda psixoterapevtik yordam ko'rsatish.
5. Serofiddin o'g, S. G. A. (2024). MODERN TECHNOLOGIES OF THE WASTE RECYCLING SYSTEM IN THE MODERN WORLD. *INNOVATION IN THE MODERN EDUCATION SYSTEM*, 5(42), 32-41.
6. Жамолова, Г. М. К., Хамрақулова, С. О. К., & Уралова, Н. Б. К. (2024). СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ НЕЙРОННЫХ СЕТЕЙ У ЧЕЛОВЕКА НА ПРИМЕРЕ РОБОТОТЕХНИКИ. *Raqamli iqtisodiyot (Цифровая экономика)*, (6), 395-402.
7. qizi Jamolova, G. M., Bo'riyev, S. N., & Tursunov, A. (2023). METHOD FOR PRECISE LANDING OF UNMANNED AERIAL VEHICLE. *Educational Research in Universal Sciences*, 2(4), 1159-1167.
8. Muzaffarovna, J. G. (2022). Investigation of a common emitter amplifier made in a bipolar transistor. *Berlin Studies Transnational Journal of Science and Humanities*, 2(1.5 Pedagogical sciences).
9. Ишанходжаева, Г. Т., & Кодирова, З. М. (2024). ПОДОСТРЫЙ СКЛЕРОЗИРУЮЩИЙ ПАНЭНЦЕФАЛИТ У ДЕТЕЙ: КЛИНИКО-НЕВРОЛОГИЧЕСКИЕ ПРОЯВЛЕНИЯ. *Scientific Journal Of Medical Science And Biology*, 3, 6-11.
10. Rakhimbayeva, G. S., Ishankhodjaeva, G. T., & Asomova, N. I. (2021). Postcovid syndrome in children: clinical and neurological aspects of the problem. *Asian journal of Pharmaceutical and biological research*, 10(2).
11. Ишанходжаева, Г. Т. (2024). БОЛАЛАРДА ЎТКИРОСТИ СКЛЕРОТИК ПАНЭНЦЕФАЛИТ: БИРЛАМЧИ КЛИНИК-НЕВРОЛОГИК НАМОЁНДАЛАРИ. *International journal of scientific researchers (IJSR) INDEXING*, 5(1), 867-869.
12. Баширова, М. А., & Сеидова, Р. С. (2014). Использование инновационных технологий в преподавании русского языка фонетические особенности качинского диалекта хакасского языка. *Mир науки, культуры, образования*, (6 (49)), 357-359.
13. Karimovna, S. Z. (2023). THE ROLE OF MODERN PEDAGOGICAL TECHNOLOGIES IN THE DEVELOPMENT OF THE SCIENCE OF PEDAGOGY. *Conferencea*, 43-45.
14. Normurotovich, Q. M., & Dilshod ogli, X. H. (2023). RODOPSIN G OQSILLARI FILOGENETIK TAHLIL. *Journal of new century innovations*, 43(2), 178-183.
15. Saidqodirova, D. S. (2017). Linguistic study of Internet terms in English and Uzbek. Dis. PhD.
16. Рахмонкулова, О. А. (2022). РАСШИРЕНИЕ УЧАСТИЯ ЖЕНЩИН В ПОЛИТИЧЕСКОЙ ЖИЗНИ-ВАЖНЫЙ ФАКТОР ПРОВОДИМЫХ РЕФОРМ В УЗБЕКИСТАНЕ. In *The 8th International scientific and practical conference "Modern*

MODERN EDUCATIONAL SYSTEM AND INNOVATIVE TEACHING SOLUTIONS

directions of scientific research development”(January 26-28, 2022) BoScience Publisher, Chicago, USA.

17. Xayrulloevna, S. Z. (2023). Development of the detective genre in American literature. *International Journal Of Literature And Languages*, 3(03), 24-33.
18. Rakhimovna, R. D. (2024). DEVELOPMENT OF LITERARY PSYCHOLOGISM IN UZBEK LITERATURE. *Conferencea*, 69-72.
19. Radjabova, D. (2022). IDENTIFYING AND DESCRIBING ERRORS IN LANGUAGE LEARNING. *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz)*, 10(10).
20. Shaymardanova, A. (2021). Компьютерный Перевод Культурных Характеристик Проблема Изготовления. *Computer Linguistics: Problems, Solutions, Prospects*, 1(1).
21. Turaeva, D. D. (2023). TRANSLATION OF PICTURE UNITS IN RUSSIAN LANGUAGE INTO UZBEK LANGUAGE. *American Journal of Philological Sciences*, 3(09), 12-19.
22. Kizi, K. E. T., & Tursunnazarova, E. T. (2024). COMPARATIVE SEMANTIC STUDY OF PHRASEOLOGICAL UNITS IN ENGLISH AND UZBEK LANGUAGES. *Central Asian Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies*, 1(13), 69-74.
23. Xalmuratov, K. P. (2022). СТРУКТУРА И ДИНАМИКА КРЕДИТОВ КОММЕРЧЕСКИХ БАНКОВ ПРЕДОСТАВЛЕННЫЕ НАСЕЛЕНИЮ. *O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMUY TADQIQOTLAR JURNALI*, 1(10), 63-66.
24. Xalmuratov, K., & Polatov, K. (2021). DEVELOPMENT OF EDUCATIONAL SERVICES IN THE REPUBLIC OF KARAKALPAKSTAN ON THE BASIS OF THE MECHANISM OF PUBLIC-PRIVATE PARTNERSHIP MAIN DIRECTIONS. *Экономика и социум*, (6-1 (85)), 298-300.
25. Ochilova, N. P. (2024). ВАЖНОСТЬ ВОСПИТАНИЯ МОЛОДЕЖИ В НАЦИОНАЛЬНОМ ДУХЕ. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 4(4), 29-33.
26. Ochilova, N. (2023). SHaping the thinking of youths by promoting the idea of national recovery-national upgrade. *Development of pedagogical technologies in modern sciences*, 2(10), 75-79.
27. Sodikova, D. T. (2021). Glimpses to feminine literature during the dynasty of Bukhara emirate: all about a poetess muslikhabegim miskin and her literary heritage. In *актуальные проблемы тюркологии: Россия и тюрко-мусульманский мир* (pp. 174-176).
28. Sadikova, D. (2023). The Expression of Muslikha begim Miskin's Autobiography in Her Own Literary Collections. *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz)*, 38(38).
29. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. T., «O'zbekiston», 2023.
30. O'zbekiston SSRning Mustaqillik Deklarasiyasi. T., «O'zbekiston», 1991..

